DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

UDK: 94(575.12):36(04)

MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATIDA YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI MODDIY-IQTISODIY HOLATI VA ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARI TARIXI

Nurmatov Abdujabbor, *dotsent,*
Ijtimoiy fanlar kafedrasi,
E-mail: abdujabbor.nurmatov@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Namangan viloyatidagi engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining moddiy-iqtisodiy holati hamda ishlab chiqarish jarayonlari tarixi, holati, muammolari va unga ta'sir ko'rsatgan omillar o'rganilgan. Tadqiqotda arxiv manbalari, davriy matbuot hamda og'zaki tarix asosida o'tkazilgan suhbatlardan foydalanilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy aloqalarning uzilishi, texnologik bazaning eskirishi va malakali kadrlar etishmasligi sanoat korxonalari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Keyingi islohotlar jarayonida mahalliy ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar va ularning natijalari tarixiy jihatdan tahlil qilingan.*

Annotation: *This article examines the material and economic conditions of light industry and food industry enterprises in the Namangan region during the post-independence period, with a particular focus on the history, current state, challenges, and factors influencing their production processes. The study employs a range of primary and secondary sources, including archival materials, periodical publications, and oral history interviews. The findings indicate that in the early years of independence, the disruption of economic ties, the obsolescence of the technological infrastructure, and the shortage of skilled labor had a significantly adverse impact on the operational capacity of industrial enterprises. Furthermore, the article provides a historical analysis of the subsequent reform measures aimed at fostering the development of local production, as well as an assessment of their outcomes.*

Аннотация: *В данной статье исследуется материально-экономическое положение предприятий лёгкой и пищевой промышленности Наманганской области в годы независимости, а также история, современное состояние, проблемы и факторы, оказавшие влияние на их производственные процессы. В ходе исследования были использованы архивные источники, периодическая печать, а также интервью, проведённые на основе устной истории. В первые годы независимости разрыв экономических связей, устаревание технологической базы и нехватка квалифицированных кадров оказали существенное негативное влияние на деятельность промышленных предприятий. В статье также проводится исторический анализ реформ, направленных на дальнейшее развитие местного производства в ходе последующих преобразований, и даётся оценка их результатов.*

Kalit so'z: *sanoat, ishlab chiqarish, moddiy-texnik baza, islohot, xususiylashtirish, mahalliy ishlab chiqarish, klaster, eksport, import, iste'mol mahsulotlari, sifat.*

Key words: *industry, production, material-technical base, reform, privatization, local production, cluster, export, import, consumer goods, quality.*

Ключевые слова: *промышленность, производство, материально-техническая база, реформа, приватизация, местное производство, кластер, экспорт, импорт, потребительские товары, качество.*

Kirish. Aholini iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashda xom ashyo manbalarini yetishtirish bilan uzviy tarzda ularni ishlab chiqaruvchi korxonalarning o'rni katta ahamiyatga ega.

DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridan barcha sohalar qatori sanoat korxonalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. O'tish davri yillarida aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va turini ko'paytirish hamda sifatini yaxshilash maqsadida, yangicha iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqqan holda, islohotlarni amalga oshirish taqozo etilardi. Chunki, dastlabki yillarda sanoat korxonalari, jumladan, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida ham bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular o'z navbatida ishlab chiqarish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng yillar davomida shakllangan iqtisodiy aloqalarning uzilishi, birinchidan, xom ashyo ta'minotidagi uzilishlarga va buning oqibatida ko'plab yirik korxonalar faoliyati to'xtab qolish arafasiga olib keldi. Ikkinchidan, mavjud korxonalardagi texnologik asbob-uskunalarning jismonan eskirishi, zamon talablaridan orqada qolishi, malakali kadrlarning yetishmasligi ishlab chiqarishda ijobiy natijalar qayd eta olmasliklariga sabab bo'ldi. Bu holat ishsizlar soni ortib borishi hamda o'sib borayotgan aholining ushbu soha mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu sohalarda bir qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, ko'plab sanoat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarilib mulkchilikning turli shakllariga o'tkazildi. Shuningdek, xususiy va qo'shma korxonalar barpo etildi. Bozor munosabatlaridan kelib chiqqan holda korxonalarga o'zini-o'zi boshqarish, erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun yo'l ochib berildi. Sanoatning ishlab chiqarish strukturasini o'zgartirish, avvalo, qishloq ho'jaligi xom ashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash, ularni tayyor mahsulot darajasiga yetkazish hamda zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan yangi sanoat korxonalarini barpo etishga e'tibor qaratildi.

Usullar. Mazkur maqolani yoritishda tarixiylik, qiyosiy, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natija. Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham dastlabki yillardan boshlab bu boradagi o'zgarishlar ikki yo'l: birinchisi mavjud korxonalarni qayta modernizatsiyalash hisobiga, ikkinchisi yangi korxonalar qurish yo'li bilan amalga oshirildi. Aholini iste'mol mollari bilan uzluksiz ta'minlash hamda ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish maqsadida ko'plab korxonalar mulkchilikning turli shakllariga o'tkazildi, ularning moddiy-texnik bazasi qaytadan yangilandi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga yangi korxonalar barpo etib borildi. Jumladan, Namangan go'sht kombinati, Namangan non mahsulotlari ishlab chiqarish birlashmasining "Issiq non" korxonasiga yangi texnologik uskunalarning o'rnatilishi ishlab chiqarish quvvati keskin oshishiga va mahsulotning tur va sifati yaxshilanishiga olib keldi. Masalan, "Issiq non" kichik korxonasi texnoligik yangilanishlardan so'ng 22 turdan ortiq non mahsulotlari ishlab chiqara boshlagan. 1996-yil sentabrdan "Namangan koka-kola" qo'shma korxonasida salqin ichimliklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi [1]. Ichki bozorni barqaror ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etish yo'li bilan bir qator yirik qo'shma korxonalar barpo etildi. Xususan, 2000-yilda viloyatda investitsiya dasturiga asosan Namangan shahrida zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirilgan "Nestle-O'zbekiston" O'zbekiston–Shveysariya qo'shma korxonasi barpo etildi [2]. Korxona 2001-yildan 4 turdagi sut mahsulotlari, 6 turdagi bolalar ozuqasi ishlab chiqara boshlagan [3]. Ushbu korxona respublikada birinchi bo'lib 2009-yilda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro ISO 22000 sertifikatini, ishlovchilar uchun xavfsiz ish sharoitlari yaratib berilgani uchun beriladigan xalqaro ONSAS 18000 va ekologik normativlarga to'la-to'kis javob beradigan ISO 14000 kabi xalqaro sertifikatlarni qo'lga qiritgan. Bu kabi xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishi korxonaning ko'proq mahsulotlarini eksport qilish imkoni kengaytirib, iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ushbu korxona ko'plab fermer xo'jaliklari, xonadonlar bilan ish yuritadi. Korxonada 300 kishi ish bilan ta'minlangan, kuniga qish faslida 40

DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

tonna, yozda 70 tonna sutni qayta ishlash quvvatiga ega. Korxona sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni uzluksiz ta'minlash maqsadida 2015-yilda texnologiya yangilanish ishlarini amalga oshirish uchun 2344,1 ming dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritdi. Viloyatda, shuningdek, qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi "Konmit" va kichik idishlarda qadoqlangan jem va quyiltirilgan sut ishlab chiqaruvchi "Polimeks" qo‘shma korxonalari 2000-yildan mahsulot ishlab chiqaraga boshlagan [4]. "Uchqo‘rg‘on-yog‘" OAJda 2008-yilda texnologik jixozlarni yangilash ishlari olib borilgan [5]. Yangi texnologik uskunalarning o‘rnatilishi ishlab chiqarishda o‘sishga va yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga xizmat qildi.

"Nurabot issiq nonlari" korxonasida 2010-yilda amalga oshirilgan texnologik yangilanishlardan so‘ng ishlab chiqarish quvvati sutkasiga 400 – 500 kg.dan 2 – 2,5 tonnagacha yetkazildi. "Popdonmahsulotlari" OAJda yangi texnologiyalarni o‘rnatilishi ishlab chiqarish hajmini keskin oshirib sutkasiga 120 tonna bug‘doyni qayta ishlash imkonini yaratdi. "Namangantola-tekstil" MChJ korxonasida texnologik yangilanishlardan so‘ng yiliga 8 ming tonna qadoqlangan o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish ta'minlandi [6]. Shuningdek, sutkasiga 150 tonnaga yakin qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi "Natural juice" MChJ korxonasi, ma'danli suvlari bilan nafaqat viloyatda, balki respublikada ham mashhur "Chortoq Mineral Water" O‘zbekiston-Niderlandiya ko‘shma korxonalari faoliyatlarini keltirish mumkin.

Namangan viloyatida oziq-ovqat sonoatini rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan 2011-yili 51 ta, 2013-yilda 47 ta, 2015-yilda 69 ta oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash yo‘nalishidagi real loyihalar amalga oshildi [7]. Bu esa ichki bozorda ushbu soha mahsulotlarining turi va miqdori ko‘payishiga olib keldi.

Inson hayoti davomida oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir qatorda, yengil sanoat mahsulotlarining o‘rni ham katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda aholining yengil sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish maqsadida ushbu soha tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona vodiysida yengil sanoatni yuksaltirish uchun qulay sharoit va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bu ushbu soha tarmoqlarini jadal rivojlantirishda muhim omillardan biridir.

Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida dastlabki yillardan boshlab mavjud korxonalar mulkchilikning yangi shakllariga o‘tkazilib, ularning moddiy-texnik bazasi yangilandi. Bu esa korxonalarning tanglik holatidan chiqib, qayta ish boshlashlarini ta'minladi. Qolaversa, hududlarda bir qator yangi korxonalar barpo etildi.

Namangan viloyati o‘zining yengil sanoat mahsulotlari bilan alohida o‘ringa ega viloyatlardan hisoblanadi. Viloyatda dastlabki yillardan boshlab mavjud korxonalar qayta qurollantirildi, yangi korxonalar barpo etildi. Jumladan, kiyim-kechaklar ishlab chiqaruvchi "Oqqum", paxta xom ashyosini qayta ishlaydigan "Asnamtekstil" qo‘shma korxonalari, jundan mato oluvchi "Kosonsoy-Tekmen", teridan mahsulot oluvchi "Kesmir diyori", sun'iy barra ishlab chiqaruvchi "Tekstimo" va "Malimo" [8], ayollar va erkaklar ko‘ylaklari ishlab chiqaruvchi "Navro‘z" qo‘shma korxonalari [9], 1996-yilda respublikada yagona bo‘lgan sun'iy mo‘yna ishlab chiqarish fabrikasi ishga tushirildi. "Noto‘qimachi" AJ va "Kosonsoy Tekmen" korxonalarida modernizatsiya ishlari olib borildi. Viloyatda keyingi yillar davomida ham yengil sanoatni rivojlantirish maqsadida bir qator korxonalar barpo etildi.

Ishlab chiqarishda ijobiy natija qayd eta olmay, iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolgan korxonalar faoliyatini sog‘lomlashtirish borasida ham amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, sobiq "Atlas" va "Silk Road" AJ negizida qayta tashkil etilgan "Vodiy ipagi" MChJ korxonasi faoliyatini tiklash uchun 3 mlrd. so‘mdan ziyod sarmoya kiritilib, qayta modernizatsiya ishlari olib borilishi natijasida pilla xom ashyosi va chiqindilardan tabiiy va qazna ipak mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi [10]. Korxonada 1000 dan ziyod kishi ish bilan ta'minlanib, yiliga 560 tonna quruq

DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

pilla, 540 tonna pilla chiqindisidan 150 tonna tabiiy, 130 tonnadan ziyod qazna ipak ishlab chiqarish ta’minlandi.

Bankrot deb e’lon qilingan “Kosonsoy Tekmen” qo‘shma korxonasi “Kosonsoy to‘qimachi” MChJ nomi bilan qayta tiklanib, kiritilgan sarmoya evaziga 4 yildan buyon harakatsiz turgan texnologik liniyalar, ishlab chiqarish uskunalari mukammal ta’mirdan chiqarildi [11]. Natijada, korxonada mahalliy xom ashyodan import o‘rnini bosuvchi junli va yarim junli mahsulotlar, odeyal matolari, gilam hamda trikotaj iplari tayyorlash yo‘lga qo‘yilib, viloyatdagi ko‘plab korxonalarni ushbu turdagi xom ashyo bilan ta’minlash imkonini yaratdi. Masalan, Pop shahridagi “RAU-Tom” qo‘shma korxonasi bayka matosi avvallari Rossiyadan keltirilgan bo‘lsa, “Kosonsoy to‘qimachi” korxonasida ushbu matoni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib “RAU-Tom” korxonasiga yetkazib bera boshlagan. Shuningdek, korxonada turli rangdagi trikotaj iplari, Marg‘ilon shahridagi gilam to‘qish korxonalari uchun junli iplar ishlab chiqarish ham joriy etilgan. Ishlab chiqarishda to‘liq mahalliy xom ashyodan foydalanishga o‘tilganligi korxona faoliyati uchun ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Namangan viloyatida olib borilgan ishlar natijasida mahsulotlarning miqdor, sifat va tur jihatdan ko‘payishi hamda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi. Garchi, Namangan viloyatida o‘tgan davr mobaynida yengil sanoat sohasida olib borilgan ishlarga qaramay, ichki bozorni ayrim turdagi mahalliy tayyor mahsulotlar bilan ta’minlash uchun yetarli bo‘lmadi.

Xususan, 2011-yil yakunlari bo‘yicha viloyatda o‘tkazilgan marketing tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, viloyat ichki bozorlaridagi raqobat natijasida mahalliy ishlab chiqarilgan erkaklar oyoq kiyimining ulushi 60 %ni, erkaklar trikotaji 47 %ni, tayyor kiyimlarniki 44 %ni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Xitoy mahsulotlarining ulushi mos ravishda 38, 22, 30 %ni, Koreyaliklar ulushi 17,9,9 %ni tashkil etib, bu borada mahalliy ishlab chiqaruvchilar ustunlikka ega bo‘lganliklarini ko‘rish mumkin. Ammo, viloyat ichki bozorlarida mahalliy yengil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, jumladan, gazlamalar bo‘yicha atigi – 13 %, ayolllar trikotaji bo‘yicha – 12 %, ayollar poyabzali – 3 % ni, Xitoyda ishlab chiqarilgan gazlamalar bozorlardagi jami mahsulot turining 46 %ini, ayollar tirikotaji – 27 %ini, ayollar poyabzali esa 95 %ini, ayni shu mahsulotlarning 35, 61, 2 %ini koreys mahsulotlari tashkil etgan [12].

Keyingi yillarda davomida ham viloyatda yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yanada e’tibor kuchaytirilib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo‘li orqali bir qator yangi yirik korxonalar barpo etildi. Jumladan, xalqaro talablarga mos ipak ishlab chiqaruvchi “Verigrov ipagi” MChJ, yuqori sifatli kostyum-shim va kurtkalar ishlab chiqaruvchi 2013-yilda ISO 9001 xalqaro sertifikatini qo‘lga kiritgan “Istiqlol tekstil dizayn”, 400 turdan ortiq import o‘rnini bosuvchi va yetakchi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi “Namangan momiq sochiqlari”, erkaklar kiyimi ishlab chiqaruvchi hamda mahsulotlarining 85 %ini eksport qiluvchi “Asadbek Oydina savdo” [13] kabi korxonalar faoliyatlari misolida ko‘rish mumkin.

Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda erishilgan ijobiy yutuqlar bilan bir qatorda ushbu sohalarda yillar mobaynida bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib keldi. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘plab korxonalarda xom ashyo ta’minotidagi uzilishlar, moddiy-texnik bazasining zamon talablaridan orqada qolishi, malakali kadrlarning yetishmasligi, ayrim korxona rahbarlarida marketing, tadbirkorlik kabi xislatlarning yetishmaganligi, bozor talablaridan kelib chiqqan holda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yetarli ahamiyat qaratmaslik, miqdor ortidan quvish oqibatida, sifat talablarini chetda qoldirish va buning oqibatida sarf-xarajatlar bilan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar omborlarda to‘planib qolishiga olib kelgan bo‘lsa, bir qator korxonalar xom ashyo manbalari yetishmasligini baxona qilib amalda ishlab chiqarish bilan emas, balki chayqovchilik, savdo-vositachilik bilan shug‘ullanish hollari mavjud bo‘lgan.

DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

Mahsulot ishlab chiqarish miqdor va sifat jihatidan orqada qolishining asosiy omillaridan biri bu – ulardagi ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarining zamon talablaridan orqada qolganligi yoki moddiy-texnik bazasini davriy ravishda yangilab borish masalalariga yetarli e'tibor qaratilmaganli oqibatida yuzaga kelgan. Bunday salbiy omillar ishlab chiqarish quvvati pasayishiga, mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va undan tayyor raqobatbardosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarish darajasi past bo'lishiga olib keldi.

Bunday omillar ko'plab korxonalarning debitorlik va kreditorlik qarzlari ortib borishiga olib kelgan. Ahvol shu darajaga borib yetadiki, ayrim korxonalardagi eski texnika va dastgohlarni saqlab turishning o'ziga sarflanayotgan xarajatlar ularning o'rniga yangi, zamonaviy uskunalarni sotib olishdan ham qimmatga tushgan.

Bu boradagi kamchiliklarni oldini olish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar olib borildi. Xususan, sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida ishlab chiqarish samaradorligini hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida Respublika Prezidentining 2010-yil 15-dekabrdagi "2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan joylarda bu borada bir qator ishlar amalga oshirilib, ko'plab sanoat korxonalarida texnologik yangilanish ishlari hamda yangi korxonalar barpo etildi. Lekin, shunga qaramasdan respublika, xususan, Farg'ona vodiysi sanoatida ham asosan dastlabki va yarim tayyor xom ashyo manbalarini ishlab chiqarish xarakteridagi korxonalar ustun mavqega ega bo'lib keldi.

Shuning uchun ham ichki bozorlarda mahalliy ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar ulushi import mahsulotlar ulushidan sezilarli darajada past bo'ldi. Ahamiyatli tomoni ko'plab turdagi import mahsulotlari xom ashyo manbalarining aksariyatida mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlari ancha yuqori bo'lgan. Lekin, tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalari ulushining pastligi, zamonaviy texnologiyalar hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash masalalarida yetarli darajada ish olib borilmaganligi sababli ham hom ashyo manbalarining katta qismini xom ashyo, yarim tayyor mahsulot tarzida eksportga yo'naltirildi. Bu, ayniqsa, yengil sanoat tarmoqlarida ustunroq bo'ldi. Iqtisodiy tomondan olib qaraganda tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan ko'ra, xom ashyoni yetishtirish va uni dastlabki qayta ishlash jarayonlariga katta kuch va mablag' sarflanadi.

Respublikaning birinchi Prezidenti I. Karimov bu borada to'xtalar ekan: "Iqtisodiyoti, avvalo, xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan davlatning ertangi kuni gumon bo'lishi barchamizga ma'lum. ...bizda hali-beri ishga solinmagan qancha-qancha imkoniyatlar borligiga ishonch hosil qilish qiyin emas, jahon bozorida, ichki va mintaqaviy bozorlarda talab katta bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan sohalarda yangi majmualar, ishlab chiqarish korxonalari barpo etish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi" [14] – deya ta'kidlaganining o'zi ham o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlarga qaramasdan, hali bu borada bajarilishi lozim muhim vazifalar mavjudligini amalda ko'rsatdi.

Mamlakatimiz, xususan, Farg'ona vodiysi yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Shuning uchun so'nggi yillar mobaynida ushbu soha tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilib qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar srategiyasida" ham sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirishning muhim vazifalari belgilandi. Unga ko'ra sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot eksportini kuchaytirish, sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni kuchaytirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan zonalarning samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shundan kelib chiqqan holda Farg'ona vodiysi viloyatlarida

DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

bu borada amaliy ishlar olib borilib, bir qator zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida yetishtirilgan paxta xom ashyosi mahalliy sanoat qorxonalarida qayta ishlash va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga o‘tilishi yengil sanoat tarmoqlarini rivojlanishi hamda korxonalarning soni miqdoran ko‘payishiga va yangi ish o‘rinlari kengayishiga olib keldi. 2020-yildan paxta xom ashyosi eksportini to‘xtatish, yetishtirilgan xom ashyoni mahalliy sanoat qorxonalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tilishi yengil sanoat tarmoqlari rivojiga, iqtisodiy foyda va eksport solohiyatini yanada ortishiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston, jumladan, Farg‘ona vodiysi yengil sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish uchun yetarli xom ashyo manbalariga ega. Lekin, o‘tgan davr mobaynida imkoniyatlardan samarali foydalana olinmadi. Xususan, bu borada mamlakat rahbari Sh.M. Mirziyoyev “Uzoq yillar davomida vaziyat shunday ediki, mashaqqat bilan yetishtirgan paxtamizdan foydani boshqalar ko‘rardi. Keyingi paytlarda uning yurtimizda qayta ishlash darajasi keskin oshdi. To‘qimachilik klasterlari paydo bo‘ldi. Ularning zamini - paxtani qayta ishlash. Buning uchun esa ilg‘or texnikalar, servislar kerak” [15] – deya ta’kidlab o‘tdi.

Yetishtirilgan paxta xom ashyosidan mahalliy korxonalarda tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kuchaytirilishi, birinchidan, korxonalar xom ashyo ta’minotidagi muammolarni to‘la bartaraf etadi va iqtisodiy foydani oshiradi, ikkinchidan, qayta ishlovchi va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ko‘payishiga hamda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladi. Shuning uchun ham keyingi yillarda bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, soha uchun bir qator imkoniyat va imtiyozlar yaratib berildi. Qolaversa, hududlarda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kengaytirish maqsadida korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarida yangicha yondashuvlar asosida ish tashkil qilindi.

Masalan, 2017-yilda Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumanida mamlakatimizdagi eng yirik O‘zbekiston - Buyuk Britaniya - Singapur davlatlari hamkorligi asosida qurilgan yangi yengil sanoat majmuasi “Uztex Uchqurgan” qo‘shma korxonasi foydalanishga topshirildi. Korxona mahalliy xom ashyodan zamonaviy usulda paxta va aralash toladan kalava ip, qatlangan ip, momiq mato va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Yillik eksport salohiyati 50 mln. dollarni tashkil etadigan ushbu korxona yiliga 16,5 ming tonna kalava ip hamda 7 ming tonna momiq mato ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lib, 1000 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi [16]. 16 gektar maydonni egallagan ushbu yirik to‘qimachilik majmuasi zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan. Korxonaning ishga tushirilishi viloyatda yetishtirilgan paxta tolasini qayta ishlash hamda tayyor mahsulot hajmini keskin ortishini ta’minladi.

Shuningdek, viloyatda birinchi bo‘lib, “Texstile Finans Namangan” korxonasida klaster usuli asosida faoliyat yo‘lga qo‘yildi. Klaster usulining joriy etilishi yengil sanoat korxonalari rivoji uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Viloyatda 2020-yil boshlariga kelib 1500 dan ziyod to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, tekstil sanoati rivoji bo‘yicha Namangan viloyati nafaqat respublikada, balki Markaziy Osiyoda yetakchi mintaqalardan biriga aylandi. Albatta, bu boradagi ishlar Andijon, Farg‘ona viloyatlari hamda respublikaning boshqa hududlarida ham rivojlantirildi.

Xulosa. Mamlakatimiz, xususan Namangan viloyati yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini rivojlanatirish uchun zarur xom ashyo manbalariga ega mintaqa hisoblanib, o‘tgan davr mobaynida ushbu sohalarda qator ishlar amalga oshirildi. Ko‘plab zamonaviy moddiy-texnik bazaga ega bo‘lagan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari kengaydi. So‘nggi yillardagi yangicha yondashuvlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ko‘payib borishiga, ichki bozorni sifatli, arzon mahsulotlar bilan to‘ldirish, eksport salohiyati hamda mintaqadagi o‘sib borayotgan aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rnini ortib borishiga olib keldi.

DOI: 10.65322/j.srd.02162026.51

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рахматуллаев Ш. Фарғона водийси шаҳарларида иқтисодий трансформация жараёнлари (1991-1996 йиллар). – Тошкент: Нишон носир, 2017. – Б. 88.
2. Ўз МА. М-82-фонд, 1-рўйхат, 229-йиғма жилд, 62-63-варақлар.
3. Сифат – бош мезон // Наманган ҳақиқати. 2010 йил 17 апрель.
4. Ўз МА. М-82-фонд, 1-рўйхат, 229-йиғма жилд, 63-варақ.
5. Модернизация: юқори сифатли маҳсулот, қўшимча иш ўрни // Наманган ҳақиқати. 2012 йил 11 июль.
6. Модернизация шарофати // Наманган ҳақиқати. 2011 йил 26 январ; Тошбулоқ тамғаси билан // Наманган ҳақиқати. 2011 йил 8 июнь.
7. Вилоят фаоллар йиғилиши // Наманган ҳақиқати. 2012 йил 15 февраль; Модернизация, экспорт ва истиқбол // Халқ сўзи. 2014 йил 27 февраль;
8. Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари. – Наманган: 2000. – Б. 234.
9. Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган: 1995. – Б. 146.
10. "Водий ипаги" ривожланишда // Наманган ҳақиқати. 2010 йил 18 август.
11. Корхона ривожланишга юз тутди // Наманган ҳақиқати. 2010 йил 10 февраль.
12. "Кластер" асосидаги "технопарк" // Наманган ҳақиқати. 2012 йил 3 март.
13. Кичик бизнеснинг экспорт салоҳияти // Наманган ҳақиқати. 2016 йил 30 июль.
14. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 47–48.
15. Бектемир тумани юқори технологияли саноат ривожланган замонавий марказга айланмоқда // Халқ сўзи. 2020 йил 22 август.
16. Учқўрғонда мамлакатимиздаги энг йирик йиширув-тўқув мажмуаси иш бошлади // Наманган ҳақиқати. 2017 йил 11 ноябрь.